

SANOATLASHTIRISH DAVRIDA O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOL (1930 – 1940-YILLAR)

Raxmatulloyev Umid

Buxoro Davlat universiteti

Tarix- (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

yo'nalishi birinchi bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: Haitov Jahongir Shodmonovich -T.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1930-1940 yillarda O'zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, sanoatlashtirish davrining mamlakatdagi ko'rinishi va natijalari haqida adabiyotlar tahlili orqali mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sanoatlashtirish, sanoat zonalari, iqtisodiyot, aholi, ijtimoiy ahvol, tarixiy jarayonlar, sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligi.

KIRISH

O'zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur'atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiyasi davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotining mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvchi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to'qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyosanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish vazifalari qo'yildi. O'zbekistondagi sanoat korxonalarini asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo'lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hechkimni qiziqitirmadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo'jaligida egallagan salmog'i 1928 yildagi 43% dan 1940 yilda 70% gayetdi. Ammo sanoat Markaz tasarrufida edi. Masalan, 30 yillarning o'rtalarida O'zbekistondagi korxonalarining 90% ittifoq tasarrufida bo'ldi. Ammo sanoat korxonalarini O'zbekiston viloyatlari bo'yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud edi.

1933-yil O'zbekiston viloyatlarida sanoat korxonalarining joylashtirilishi.

Iqtisodiy rayon va okruglar	1933 yil	
	Korxonalar soni	Ishchilar soni
Toshkent	208	26305
Farg'ona	201	23160
Zarafshon	172	12223

	Qashqadaryo	27	1231
	Surxondaryo	21	1019
	Xorazm	30	1545

Ko‘rilgan tadbirlar natijasida O‘zbekistonda 1937- yil yirik sanoat korxonalarini soni 948 ta bo‘lsa, 1940 yil ular soni 1445 ta bo‘ldi. Bu yillarda sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1487,7 mln rubldan 2189,9 mln rublga ko‘paydi.

1928-1932- yillarda SSSRda xususiy mulk tugatilib, dehqonlar majburiy tarzda kollektivlashtiriladi. Bunda, dehqonlar qo‘lidagi barcha narsa: yer, suv, chorva mollari, dehqonchilik asboblari yangi tuzilgan jamoa xo‘jaliklar uchun tortib olinadi.

Boylar va o‘rtahollar yoppasiga «boy-quloq» deb atalib qamaladi yoki kimsasiz hududlarga surgun qilinadi.

Xo‘jaligidagi chorva mollari va dehqonchilik anjomlarini jamoa xo‘jaliklarga ixtiyoriy topshirmaganlar qattiq jazolanadi. Qarshilik ko‘rsatganlar hatto joyida otib tashlanadi.

Mamlakatdagi dehqonlarni talab, ularni majburiy tarzda jamoa xo‘jaliklariga a‘zo qilish ishlariga Mixail Kalinin boshchilik qiladi.

1932- yilda SSSRda g‘alla hosili juda past bo‘ldi va jamoa xo‘jaliklari belgilangan rejani zo‘rg‘a 15-20 foizga bajaraoldi, xolos. Kuzga kelib hosil cho‘g‘i kamligini bilgan SSSR rahbarlari g‘alla yetishtiradigan hududlarda g‘alla yetishtirishga mas‘ul bo‘lganlar va dehqonlarni jazolashadi.

«G‘alla ishi»da umumiy hisobda 5000 partiya xodimi, 15000 dehqon jazolanadi. Ko‘plab temiryo‘l stansiyalari rahbarlari va ishchilari jazolangan.

Stalin qatag‘onlari 1934- yilda avj pallasiga chiqadi. Tarixchilar, buni o‘sha yilda SSSRda NKVD tashkil etilganiga bog‘lashadi. Yangi tashkil etilgan bu organ o‘sha paytda «ishko‘rsatish» uchun ham ko‘pchilikni qamoqqa tiqadi.

RSFSR hukumatining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, 1933- yilda 1 million, 1934- yilda 1,2 million kishi qamoqqa tashlanadi.

1934- yildan boshlab Stalinning siyosiy qatag‘onlari boshlangan. Avvaliga partiya saflari «yot unsurlar»dan tozalanadi. Keyin esa Leningradda «Kirovishi» boshlanadi.

S.M.Kirov Leningrad obkomining rahbari bo‘lib ishlar, xalq orasida obro‘si nihoyatda katta edi. Uni Leningradda otib ketishadi. 1989-1990- yillarga kelib bu ish shaxsan Stalinning buyrug‘i bilan amalga oshirilgani ma‘lum bo‘ladi. Ammo 1934- yilda bu haqda gapirish, surishtiruv o‘tkazish mumkin emas edi.

Kirovning qotili qo‘lga olinganda u G.Zinovev va L.Kamenev rahbarlik qilgan yashirin tashkilotga a‘zolikni aytadi.

O‘sha yil 16- dekabrda Kamenev va Zinovev qamoqqa olinadi. Ulardan so‘ng, yana ko‘plab kishilar Kirovning o‘limida va yashirin tashkilotga a‘zolikda ayblanib

qamoqqa tashlanadi. O‘shanda, Stalin Kirovni o‘ldirtirib, shu bahona juda ko‘p odamni qamoqqa tiqadi.

1937-1938 yillarda umumiy hisobda 1 mln 575 ming 259 nafar kishi qamaladi. Ulardan 681 ming 692 nafari tergovdan so‘ng otuvga hukm qilinadi.

Markaziy Osiyo respublikalaridan qamalanganlar va otib tashlanganlar asosan «pankturkist», «millatchi», «diniy reaksioner», Rossiya taraflarda «troiskiychi», «menshevik», Ukraina daesa «banderachilar» deb ayblanib qatag‘on qilinadi.

Oktabr to‘ntarishi paytida o‘zini ko‘rsatagan va keyinchalik marshal unvoniga ega bo‘lgan Mixail Tuxachevskiy ham 1937- yilda qamaladi. Uni vatanga xiyonatda ayblashadi.

Tuxachevskiydan keyin SSSR mudofaa vazirligining birqator yuqori lavozimli harbiylari qamoqqa olinib, otuvga hukm qilinadi.

O‘shanda 4 yil ichida 11 000 nafar turli yuqori lavozimdagi harbiylar qamaladi yoki otuvga hukm qilinadi.

1937- yilda NKVD mamlakat bo‘ylab o‘zining barcha tuzilmalariga N00447-sonli «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa yot unsurlarni mahv etish» haqidagi buyrug‘ini jo‘natadi.

Shundan so‘ng, butun mamlakat bo‘ylab odamlarni siyosiy ayblar bilan qamoqqa tiqish boshlanib ketadi.

Oila a‘zolaridan kimdir «qizillar»ga qarshi kurashgan yoki «boy-quloq» qilingan bo‘lsa bo‘ldi — uni «vatanga xiyonat»da ayblash uchun shu asosning o‘zi yetarli edi. So‘ngra, qarindoshlari orasida «yot unsurlar» bo‘lganlarni, «dushmanlar» bilan birga ishlaganlarni, diniy bilimga ega bo‘lganlarni siyosiy ayblar bilan qamash boshlanadi.

O‘shanda NKVDdastidan hech kim omon qolmaydi. Mamlakat bo‘ylab chaqimchilar nihoyatda ko‘payadi.

Kimdir NKVDchilarga yaxshi ko‘rinish uchun, kimdir mansab olish uchun, kimdir yana nimadir sabab bilan boshqalar ustidan chaquv xatlari yoza boshlaydi.

Shu tariqa, 1941- yil 22 iyun, fashistlar Germaniyasi SSSRga bostirib kiringuncha, mamlakat bo‘ylab juda ko‘plab odam siyosiy ayblar bilan qamoqqa tiqiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Sovet hokimiyatining o‘z davrida yuritgan kommunizm g‘oyasi amalda o‘z natijasini bermadi. Sanoatning sun‘iy jadallashtirishi oqibatida korxonalarining aksariyati eski texnologik asbob-uskunalar bilan ta‘minlandi, bu esa mehnatkash xalqqa og‘ir yuk bo‘lib tushdi. Aholining ijtimoiy ehtiyoji esa byudjet siyosatida keyingi o‘ringa tushib qolgan edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. *Toshkent, 2017-yil* 2 jild. 342-b.
2. Fayzulla Xujayev Izb. Ishlar 3 jildda T.2-T., 1972, 247-bet.

3. Napolnin V.Ya.da sotsializm qurishning tarixiy tajribasi O‘zbekiston (1917-1937) T., 1960, 275 b.
4. O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi 50 yil. 72-bet
5. Sovet O'zbekistoni 40 yil. Art.sb. t., 1964 yil, 67-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, r -1624 jamg‘arma, 10-ro‘yxat, 131-ish, 32-varaq

